



Oila ijtimoiy munosabatlarning asosi sifatida.

¹Xalikova Shaxodat
To'xtayevna
²Toshniyozov Shoxrux
Shuhrat o'g'li

¹Xalikova Shaxodat To'xtayevna-TIPI dotsenti.
²TIPI Pedagogika fakulteti sirtqi ta'lim 3-bosqich
talabasi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada yurtimizda bir ulug' qadriyat borki, bu bizlarga ajdodlarimizdan yetib kelgan va biz yosh avlodlar ham bu muqaddas qadriyatlarimizni bizdan keying avlodlarimizga asrab avaylagan holatda topshirishimiz kerak. Bu muqaddas qadriyat- oiladir. Oila har bir jamiyatning boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va mustahkam bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam va farovon bo'lish haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR. Oila, qadriyat, mustahkam oila, urf – odatlar, mahalla, burch, oilaviy ajrimlar, kan ta'minlangan oila.

Аннотация. В этой статье говорится, что в нашей стране есть великая ценность, которая дошла до нас от наших предков, и мы должны передать эти священные ценности молодым поколениям в том состоянии, в котором они сохранили их для наших потомков после нас. Это священная ценность - семья. Семья считается стартовой ячейкой каждого общества. Когда семья крепкая, мирная, честная и дружная, общество также считается спокойным, крепким и процветающим.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Семья, ценность, крепкая семья, традиции, соседство, долг, семейные узы, семья с кровью.

Annotation. This article says that there is a great value in our country that has come down to us from our ancestors, and we must pass on these sacred values to the younger generations in the state in which they have preserved them for our descendants after us. This is a sacred value - family. The family is considered the starting point of every society. When the family is strong, peaceful, honest and friendly, the society is also considered calm, strong and prosperous. keywords. Family, value, strong family, traditions, neighborhood, duty, family ties, family with blood.

Oilani men daraxtga o'xshataman. Daraxt – bu doimo toza pok joyda o'suvchi va shu bilan birgalikda toza joyda unishi lozim. Daraxt – bu oila ustuni o'talarimizdir. Daraxt doimo toza va pok suvlarni is'temol qilishi kerak. Daraxtning ildizlari ichib turgan pok suvlar kelgusida mevali, mazali hamda totli jamiyat uchun foydali bo'la olishi kerak. Daraxt qanchalik mustahkam, irodali va qat'iyatli bo'lib doimo o'ziga

bo'lgan ishonchini saqlab qolishi uchun, uning shoxlarini xizmati beqiyosdir. Shohlar – bu uning turmush o'rtog'i (jufti haloli).

Fasllar – bu tabiatning shavqatsiz qonuniyatlaridir. Bunda faqat o'zlariga mustahkam iymon, ishonch va hayotda o'zlari uchun kerakli bo'lgan saboq olishsa bu hayotda oz bo'lsa ham, ko'p bo'lsa ham ma'noli va baxtli hayot kechira oladilar.

Bahor faslida yangi ekilgan daraxt ona tabiat bag'rida sekin astalik bilan unib o'sishni boshlaydi. Yam – yashil bargga burkanib gullar ochadi. Bunda tabiatga moslashadi.

Yoz faslida sekin astalik bilan taqdir sinovlari boshlanadi. Ob – havo jazirama issiqligi, qirg'oqlik, turli xildagi tabiatdagi hashorotlarning tinimsiz bezovta qilishiyu va shu bilan birgalikda quruq shamollar, qum bo'ronlar kabi sinovli kunlar avj oladi. Bunda esa daraxtning tanasi juda ko'p daldaga, mehrga muhtojlik sezadi. Unga faqatgina Ollohni o'zi va uning shoxlarigina yordam bera oladi. Shohlari jazirama issiqda va boshqa tabiat qonunlarida unga suyanch bo'lib, unga soya berib tursa bu sinovli kunlarda qurib qolmasdan yaratganiga ishongan holda yengib o'tadi. Ayrim shoxlar bu sinovli kunlarga sabr bardoshlari yetmay tabiat qonunlari oldida o'jiz qolishadi. Ayovsiz bo'ronlar zarbidan omon qola olmaydi. Bu esa butun yer yuzi uchun fojeadir. Kuz fasli eng ajoyib fasllardan biri. Yig'im terim ishlari avjida bo'ladi. Hosil olish uchun yozni yoz, yozning jarima issiqlarini issiq demasdan hamma hodisalariga bardosh bera olganlarigina o'ta oladi. Xolbuki, barcha bardoshlarin uchun hosil olinadi.

Mustahkam oila qurish uchun: avvalo, o'ziga bo'lgan ishonch kuchli bo'lishi kerak. Sabr va sadoqat uning doimgi shiori bo'lsa, u albatta boshlayotgan oilasini boshidan mustahkam qura oladi. “Agar ota -ona 1 nafar o'g'il farzandni yaxshin tarbiyalasa jamiyat uchun bir shaxsni tarbiyalagan bo'ladi. Agar ota-ona bir nafar qiz farzand tarbiyalasa jamiyat uchun xissa qo'shib butun ummatni tarbiyalagan bo'ladi”.

Oilalarda parokandalik, buzg'unchilik va halol- xaromni farqi qolmasa, o'sha jamiyat buziladi, tinchi yo'qoladi, oxir – oqibat chuqur tanazzulga yuz tutadi. Shuning uchun qadimdan har bir jamiyat oila masalasiga ko'proq e'tibor bergan va oilalarni mustahkam va baxtiyor oila bo'lishi uchun, imkoni bor bo'lgan barcha chora tadbirlarni ko'rishgan va bu hali hanuz davom etmoqda. Ammo ming afsuslarki, G'arbdagi ba'zi bir dunyo qarashlarda “Hurriyat”, “Shaxs erkinligi” degan soxta shiorlar paydo bo'lib qolgan. Aynan o'sha jamiyatlar tomonidan “oilaning keragi yo'q”, “nikoh shart emas”, u insonni erkini cheklaydi degan davoga asos solishmoqda. Va bunga ishonadiganlar ham ko'payib bormoqda.

Bu natija ya'ni musulmonlar yashaydigan ushbu 3 mintaqa uzoq umr ko'rishi va ko'p bolalik bo'yicha ham peshqadam hisoblanadi. Natijalarni ko'rgan rus cherkovlari ruhoniylari shunday degan ekanlar: “Oila mustahkamligi va farovonligini musulmonlardan o'rganishimiz kerak” deya ta'kidlagan ekanlar.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 63 – moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega” deb belgilab qo'yilgan.

1994- yil 22- avgustda “Kam taminlangan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish” to'g'risida Prezident farmoni e'lon qilingan.

1998- yilda “Oila yili deb e’lon qilingan”. Zardushtiylikning muqaddas “AVESTO” kitobida ham oila muqaddas dargoh ekanligi, oila barqarorligida er-xotinni teng mas’ulligi, farzand tarbiyasidagi fikrlar bayon etilgan.

Hadisda keltirishlaricha “Qachon er o’z xotiniga va xotin o’z eriga qarashsa, bilingki, olloh ham ularga o’z nazari bilan qaraydi, bordiyu er-xotin kaftini kaftiga qo’ysa, barmoqlari orasidan gunohlar duv –duv to’kiladi” deyilgan.

Oila psixologiyasining aytishicha baxtli oila bo’lish uchun:

- Baxtli er – xotinlar bir – birlari bilan har qanday mavzuda suhbatlashishi va maslahatlashishi kerak;
 - Er – xotin bir biriga va farzandlariga tez –tez yaxshi ko’rishini aytishi va bag’riga bosishi kerak;
 - Ijobiy kayfiyat va har narsani yaxshi tomonlarini ko’ra bilish oilaviy hayotda muhim rol o’ynaydi;
 - Ko’p vaqtini birga o’tkazish, vaqtichog’lik qilish va oilaviy an’analar yaratishga harakat qilish kerak;
 - Bir- birini hurmat qilish;
 - Uyda shunday sharoit yaratish kerakki, uyga kirishi bilan bag’ri dili yayrasin;
 - O’zingizda borini qadrlang va bir – biringizdan minnaddor bo’ling;
- Oilaviy dasturxon atrofida to’planib ovqatlanish ham baxtli va mustahkam oilalarga xos hususiyatdir.

23 – iyul kuni AOKA da Oila va xotin -qizlar qo’mitasi ishtirikida o’tkazilgan matbuot anjumanida tizimda joriy yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar, istiqboldagi vazifalar to’g’risida ma’lumot berilishiga ko’ra :

2024- yil 6 oy davomida 22467 ta oilaviy ajrim qayt etilib, 2023- yilning shu davriga nisbatan 11.6 % kamayishiga erishiligi ma’lum qilindi.

Oilaviy ajrimlarga nimalar sabab bo’lmoqda degan savolga:

- Er –xotin o’rtasidagi kelishmovchilik 48.4 %
- Uchinchi shaxs, qaynona va qaynota oilaga ishiga aralashuvi 17.4 %
- Yoshlarni oila qurishga tayyor emasligi 11 %
- Moddiy yetishmovchilik, turmush o’rtog’I ishsizligi 6.3 %
- Ichkilikbozlik 5.5 %
- Ichki va tashqi migratsiya 3.5 %
- Boshqa turli sabablar 11.3 %

XULOSA. Menimcha farzandlarni “tirik yetim” qilishdan avval inson o’z ustida ishlashi va o’zida bor imkoniyatlardan unumli foydalanishi kerak. Oilani qadriga yetishlik har bir oila a’zosining burchidir, chunki oila muqaddas dargoh.

Oilaviy nizolarni tugatish uchun ma’lum reja asosida izchil ishlar olib borilishi lozim, oilaviy hayotga qadam qo’yish arafasidagi yoshlar oila mas’uliyatini olishga tayyormi, kelajakda kelib chiqadigan muammolarni o’zi hal qila oladimi, oilasini ta’minlash uchun moddiy jihatdan barqarorlikka erishganmi, agar ishi bo’lmay qolgan taqdirda oilasining ehtiyojlarini qondirish uchun biror hunari bormi bularning barchasi o’rganib chiqishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. www.Samdu.uz
2. www.Gazeta.uz
3. Oila psixologiyasi R.M. Abdullayeva. A.Islomov 2008 y
4. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri Toshkent islom universiteti 2004
5. Burxoniddin Marg'iloniy. Hidoya Toshkent 2002 y
6. Abdirauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari Toshkent 2000 y